



ILMIY ELEKTRON JURNAL

ONLAYN TA'LIM PLATFORMALARINING O'QUV JARAYONIGA TA'SIRI

Madyarova Muxlisa Abdulla qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi assistenti

muxlisamadiyorova@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada onlayn ta'lism platformalarining zamonaliviy o'quv jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida ta'lism jarayonida masofaviy va gibrild o'qitish usullarining qo'llanilishi ortib bormoqda. Onlayn ta'lism platformalari o'quvchilarga istalgan joyda va vaqtida o'qish imkoniyatini yaratib, ularning bilim olish jarayonini moslashuvchan va individualizatsiyalangan shaklda olib borishga yordam beradi. Shuningdek, ushbu platformalar o'qituvchilarga dars jarayonini optimallashtirish, talabalarining bilim darajasini real vaqt rejimida kuzatish va interaktiv materiallardan foydalanish imkoniyatini taqdim etadi. Maqolada onlayn ta'limga afzalliklari va kamchiliklari, o'quvchilarning motivatsiyasiga ta'siri hamda an'anaviy ta'limga bilan integratsiya qilish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari onlayn ta'lism platformalarining samaradorligini oshirish va ta'lism sifatini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar berishga yo'naltirilgan.

Аннотация

В статье анализируется влияние платформ онлайн-обучения на современный процесс обучения. В связи с развитием цифровых технологий в образовательном процессе расширяется применение дистанционных и гибридных методов обучения. Платформы онлайн-обучения позволяют студентам учиться в любом месте и в любое время, помогая им гибко и индивидуально подходить к процессу обучения. Эти платформы также предоставляют преподавателям возможность оптимизировать процесс обучения, отслеживать уровень знаний учащихся в режиме реального времени и использовать интерактивные материалы. В статье рассматриваются преимущества и недостатки онлайн-образования, его влияние на мотивацию студентов, а также возможности интеграции с традиционным образованием. Результаты исследования направлены на предоставление рекомендаций по повышению эффективности платформ онлайн-образования и улучшению качества образования.

Annotation

This article analyzes the impact of online learning platforms on the modern learning process. As a result of the development of digital technologies, the use of distance and hybrid learning methods in the educational process is increasing. Online learning platforms allow students to study anywhere and at any time, helping them to conduct their learning process in a flexible and individualized manner. These platforms also provide teachers with the opportunity to optimize the teaching process, monitor the level of students' knowledge in real time, and use interactive materials. The article discusses the advantages and disadvantages of online learning, its impact on student motivation, and the possibilities of integration with traditional education. The results of the study are aimed at providing recommendations for increasing the efficiency of online learning platforms and improving the quality of education.

Kalit so‘zlar

Onlayn ta’lim, raqamli platformalar, masofaviy ta’lim, interaktiv o‘qitish, ta’lim texnologiyalari, raqamli transformatsiya, gibrild ta’lim, ta’lim sifati, o‘quv jarayoni, pedagogik innovatsiyalar.

Ключевые слова

Онлайн-образование, цифровые платформы, дистанционное обучение, интерактивное обучение, образовательные технологии, цифровая трансформация, гибридное образование, качество образования, учебный процесс, педагогические инновации.

Keywords

Online education, digital platforms, distance learning, interactive learning, educational technologies, digital transformation, hybrid education, educational quality, learning process, pedagogical innovations.

Kirish

Zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimida ham tub o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Xususan, onlayn ta’lim platformalari o‘quv jarayonining ajralmas qismiga aylanib, an’anaviy o‘qitish metodlarini samarali tarzda to‘ldirib kelmoqda. Ushbu platformalar ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirib, talabalar va o‘qituvchilar uchun yangi uslub va yondashuvlarni joriy qilishga zamin yaratmoqda.

Onlayn ta’lim platformalarining afzalliklari orasida qulaylik, moslashuvchanlik va interaktivlik kabi omillar alohida ajralib turadi. Ular masofaviy ta’lim olish imkonini berib, turli yoshdagi va kasbiy yo‘nalishdagi shaxslar uchun o‘quv jarayonini qulay va samarali qiladi. Shu bilan birga, raqamli ta’lim muhitining rivojlanishi pedagogik yondashuvlarga ham ta’sir ko‘rsatib, o‘qitish metodikasining yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda.

Interfaol ta’lim platformalari o‘quvchilarga interaktiv va qiziqarli tarzda ko‘nikmalarni o‘rganish va mashq qilishda yordam beradigan raqamli vositalardir. Ushbu platformalar turli xil kontentni o‘z ichiga olishi mumkin, masalan, video

darsliklar, testlar, o‘yinlar, topshiriqlar va boshqalar. Ta’lim jarayonida interaktiv ta’lim platformalaridan foydalanish o‘quv sifatini sezilarli darajada oshirishi va o‘quvchilarning yaxshi natijalarga erishishiga yordam beradi .

Ushbu maqolada onlayn ta’lim platformalarining o‘quv jarayoniga ta’siri, ularning samaradorligi va pedagogik jarayonga integratsiyasi tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu platformalarning imkoniyatlari va cheklowlari ko‘rib chiqilib, ularning ta’lim sifatiga ta’siri haqida ilmiy asoslangan xulosalar beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ushbu tadqiqot doirasida onlayn ta’lim platformalarining o‘quv jarayoniga ta’siri bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Turli tillardagi ilmiy maqolalar, kitoblar va ilmiy hisobotlar asosida quyidagi natijalarga erishildi.

Siemens G.ning “Learning in the Digital Age: Online Platforms and Their Impact on Higher Education” nomli kitobida onlayn ta’limning rivojlanishi, zamonaviy texnologiyalar ta’lim jarayoniga qanday ta’sir qilishi va kelajakdagi tendensiyalar tahlil qilingan .

Иванов А. “Цифровая трансформация образования: вызовы и перспективы” nomli asarida ta’limning raqamlı texnologiyalar yordamida qanday rivojlanayotgani va an’anaviy ta’lim bilan solishtirganda qanday afzallikkarga ega ekani yoritilgan .

Yo‘ldoshev S. Raqamlı texnologiyalar asosida ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish nomli tadqiqotida raqamlı platformalar ta’lim sifatiga qanday ta’sir ko‘rsatishi va ularning innovatsion imkoniyatlari tahlil qilingan .

Karimov B. “Onlayn ta’limning afzallikkleri va muammolari: O‘zbekiston tajribasi” deb nomlangan maqolasida O‘zbekistonda onlayn ta’lim platformalaridan foydalanish darjasи, ularning samaradorligi va uchraydigan muammolar to‘g‘risida batafsil yoritilgan .

Karimov F.R. ning Ta’lim jarayonida interaktiv ta’lim platformalarning qo‘llanishi tahlili nomli maqolasida ta’lim jarayonini tashkil etishda interaktiv ta’lim platformalarining qo‘llanilishining ahamiyatli tomonlari tahlil qilingan. Elektron ta’lim platformasidan ta’lim jarayonida foydalanish usullari, trenajyorlar bilan ishslash, multimedia texnologiyalaridan foydalanish, video ma’ruzalar, interaktiv mashqlar yoki yuklab olinadigan resurslardan foydalanish usullari haqida yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda onlayn ta’lim platformalarining o‘quv jarayoniga ta’sirini o‘rganish uchun kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot usullari sifat va miqdoriy tahlilga asoslangan bo‘lib, nazariy tahlil, empirik tadqiqot, eksperimental tahlil, statistik tahlil kabi usullarni o‘z ichiga oladi.

Tahlil va natijalar


Ushbu maqolada onlayn ta’lim platformalarining o‘quv jarayoniga ta’sirini o‘rganishga qaratildi. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamlı texnologiyalarning roli tobora ortib bormoqda va onlayn platformalar an’anaviy ta’limga nisbatan muhim afzallikkarga ega. Tadqiqot davomida turli manbalar, respondentlarning fikrlari va empirik ma’lumotlar tahlil qilinib, quyidagi natijalarga erishildi.

Onlayn platformalar ta’lim jarayonida interaktivlikni oshirib, talabalarning o‘zlashtirish darajasiga ijobjiy ta’sir qiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarning 78% onlayn ta’limdan so‘ng o‘z bilimlarini yaxshilaganini bildirgan.

Video darslar, testlar va muhokama forumlari bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Talabalar istalgan joyda va vaqtida bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Onlayn platformalar individual o‘qish sur’atini qo‘llab-quvvatlaydi va talabaning ehtiyojlariga mos ravishda o‘quv materiallarini tanlash imkonini beradi.

Ko‘p hollarda, o‘qituvchilar va talabalar o‘zaro bog‘lanish uchun video konferensiyalar, chatlar va elektron pochta kabi vositalardan foydalanadilar.



1-rasm. Onlayn ta’limda mavjud muammolar va cheklovlar

An’anaviy ta’lim va onlayn ta’limning samaradorligi quyidagi 1-jadvalda keltirilgan mezonlar bo‘yicha taqqoslandi.

1-jadval

An’anaviy ta’lim va onlayn ta’limning samaradorligi

Mezoni	An’anaviy ta’lim	Onlayn ta’lim
Moslashuvchanlik	Darslar qat’iy jadval asosida o‘tiladi	Talaba istalgan vaqtida o‘qishi mumkin
Interaktivlik	Cheklangan, faqat auditoriya doirasida	Kengroq imkoniyatlar, chat va forumlar orqali muloqot
Bilim olish tezligi	Guruh sur’atiga bog‘liq	Talabaning individual sur’atiga moslashadi
Motivatsiya	O‘qituvchi tomonidan rag‘batlantirish mavjud	Talabaning o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatiga bog‘liq
Texnik talablar	Minimal	Yaxshi internet va qurilmalar talab etiladi

Yuqoridagi taqqoslashdan ko‘rinib turibdiki, onlayn ta’lim zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘qitish jarayonini sezilarli darajada osonlashtirsa-da,

texnik va motivatsion muammolar uni samarali qo'llash uchun e'tiborga olinishi kerak.

Zamonaviy ta'lismida raqamli texnologiyalarning roli ortib borayotganligi sababli, ularning o'quv jarayoniga ta'sirini ilmiy asosda tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot doirasida onlayn va an'anaviy ta'lism shakllari o'rtasidagi farqlar o'rganilib, talabalar bilim darajasi, o'zlashtirish ko'rsatkichlari hamda o'quv motivatsiyasiga ta'siri empirik usullar yordamida baholandi.

Onlayn ta'lism platformalarining samaradorligini baholash maqsadida eksperimental tadqiqot o'tkazildi.

Tadqiqot ikki mustaqil guruh eksperimental ya'ni onlayn ta'lism platformalaridan foydalangan talabalar, ikkinchisi esa nazorat guruhi ya'ni an'anaviy (oflayn) ta'linda o'qigan talabalar bilan amalga oshirildi.

Tadqiqot ishtirokchilari oliy ta'lism muassasalarining turli yo'nalishlarida tahsil olayotgan 200 nafar talaba (har bir guruhdan 100 nafardan) bo'lib, ularning o'qish natijalari tahlil qilindi.

Talabalar bilimini baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlar o'rganildi:

- oraliq baholar – semestr davomida o'tkazilgan test va nazorat ishlari natijalari;
- yakuniy imtihon natijalari – semestr yakunida o'tkazilgan baholash tizimi;
- o'zlashtirish darajasi – talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilim foizi.

O'zlashtirish darajasi quyidagi formula yordamida hisoblandi:

$$O = \frac{\sum X_i}{N}$$

bu yerda, O - o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi, X_i - har bir talabaga tegishli akademik ball, N - umumiy talabalar soni.

Shuningdek, *Studentning t-testi* yordamida guruhlar o'rtasidagi farqning statistik ahamiyatini tekshirish natijasida talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari onlayn ta'linda o'qigan talabalar o'rtacha 82%, an'anaviy ta'lindagi talabalar natijasi 78% ni tashkil etdi.

Imtihon natijalari bo'yicha solishtirilganda esa, onlayn ta'lism guruhining imtihon o'rtacha balli 88 bo'lsa, an'anaviy ta'lism guruhida bu ko'rsatkich 84 ni tashkil etdi.

Student t-testi natijalariga kelsak, hisoblangan t-qiymati 2,45 bo'lib, $p < 0.05$ natijasi aniqlandi, ya'ni farq statistik jihatdan ishonchli degan xulosa berish mumkin bo'ladi.

Bu natijalar onlayn ta'lindan foydalanish talabalar o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Xususan, onlayn resurslar, interaktiv materiallar va mustaqil o'rganish imkoniyati o'quvchilar bilimini chuqurlashtirishga yordam beradi.

Xulosa

Tadqiqot natijalariga ko'ra, onlayn ta'lindan foydalanish o'quvchilar natijalarini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Shuningdek, moslashuvchan jadval, interaktiv darsliklar va o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatlari ushbu ta'lism shaklining samaradorligini oshiruvchi muhim omillar sifatida baholandi. Shu bilan birga, onlayn ta'lism muassasalari o'quv jarayonini yanada takomillashtirish uchun texnik va pedagogik yondashuvlarni rivojlantirishga e'tibor qaratishlari lozim.

Onlayn ta’lim platformalari ta’lim jarayonini sezilarli darajada takomillashtiradi va o‘quvchilarga qulay sharoit yaratadi. Ularning samaradorligi, ayniqsa, raqamli vositalardan to‘g‘ri foydalanish va interaktiv metodlarni qo‘llashga bog‘liq.

Kelajakda onlayn ta’limning yanada rivojlanishi uchun quyidagi tavsiyalar beriladi:

- onlayn darslar samaradorligini oshirish uchun pedagoglarning texnologik ko‘nikmalari rivojlantirilishi lozim;
- interaktivlik va moslashuvchanlikni oshirish uchun ta’lim platformalarini doimiy takomillashtirish zarur;
- barcha o‘quvchilar uchun sifatli internet va texnologik jihozlar bilan ta’minalash choralari ko‘riliishi kerak.

Ushbu tadqiqot kelajakda onlayn ta’limning afzalliklarini yanada kengroq o‘rganish va yangi pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. ШИКУН А. Mobility and Language Learning: Using Online Platforms for Learning Foreign Languages //Людинознавчі студії. Серія «Педагогіка». – 2023. – №. 48. – С. 224-228.
2. Mohira S. ISSUES, THEORIES, AND APPROACHES IN THE PRESENTDAY LEXICOGRAPHIC SEMANTIC STUDIES //«CONTEMPORARY TECHNOLOGIES OF COMPUTATIONAL LINGUISTICS». – 2024. – Т. 2. – №. 22.04. – С. 438-442.
3. Fayzullayevna S. M. The usage of hierarchical concepts (hypernym and hyponym) in Uzbek thesaurus dictionaries //Miasto Przyszłości. – 2024. Т. 46. – С. 287-290.
4. Adamova F. J., Iskandarova N. B. THE CONCEPT OF THE TERM AND ITS PLACE IN MEDICINE //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 181-184.
5. Турдиева Г.С., Шойимов А.С. Основные особенности и функции использования современных облачных служб в системе образования // Вестник науки и образования. 2021. №17-3 (120).
6. Siemens, G. (2019). Learning in the Digital Age: Online Platforms and Their Impact on Higher Education.
7. Иванов, А. (2020). Цифровая трансформация образования: вызовы и перспективы.
8. Yo‘ldoshev, S. (2021). Raqamli texnologiyalar asosida ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish.
9. Karimov, B. (2022). Onlayn ta’limning afzalliklari va muammolari: O‘zbekiston tajribasi.
10. Judith V. J. Z. Students' experiences in learning English using online platforms in pandemic: A case in a State College //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – С. 10183-10200.